

ZAIIF ESHITUVCHI BOLALAR TALAFFUZ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISH

Oybekova Shukrona Oybek qizi

*Maxsus pedagogika(surdopedagogika) mutaxassisligi
2-kurs magistranti*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 14.01.2026

Revised: 15.01.2026

Accepted: 16.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*zaif eshituvchilik,
nutq, zaif eshituvchanlik
xususiyatlari, oral
metodlar, aural
metodlar, imo-ishora
metodlar, logopedik
o'yinlar, didaktik
o'yinlar.*

Eshitish inson hayotidagi eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Uning yo'qolishi esa insonning ijtimoiylashuviga, shaxs sifatida to'laqonli shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu maqolada eshitish imkoniyatining inson hayotidagi ahamiyati, zaif eshituvchi bolalarning nutq malakalari, ularning talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishda o'yin faoliyatining ahamiyati haqida yozilgan

Kirish: Eshitish imkoniyati inson hayotidagi eng muhim kommunikativ vosita ekanligi, eshitish imkoniyati orqaligina inson nutqiy muloqotni egallashi mumkinligini hisobga olgan holda, eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning nutqni egallashi, ta'lim olish jarayonining naqadar murakkabligini tasavvur qilish mumkin. Aslida eshitmaydigan bolalarni sog'lom va eshitadiganlar jamiyatiga integratsiya qilish, kommunikativ vosita sifatida so'zlashuv nutqini o'rgatish va og'zaki nutq orqali ta'lim berish, ularga ta'lim berishning bosh mezonlari sifatida qabul qilingan. Nutq - odamlarning o'zaro munosabatda bo'lishi, aloqa bog'lashida asosiy qurol bo'lib, kishi o'z fikri, xohish istaklarini nutq orqali atrofdagilarga bildirishi, o'z

kechinmalarini ifoda etishi mumkin. Ana shuning uchun ham nutq kishi fikrlash qobiliyatining asosi, uning bir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Fikrlash jarayonlari taxlil qilish, sintezlash, taqqoslash, umumlashtirish va boshqalar bolaning nutq o'zlashtirishiga bog'liqdir. Bola nutqi o'sa borgan sayin bu jarayonlar ham rivojlanib, kengayib boradi. Zaif eshituvchi bolalarda nutq rivojlanishi eshitishning cheklanganligi tufayli sekinlashgan bo'ladi va bir qator o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik buzilishlar bilan kechadi. Eshitish yetishmovchiligi tufayli bola nutq tovushlarini to'laqonli eshitmaydi, bu esa fonematik eshitishning yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi. Natijada tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Adabiyotlar tahlili va metadalogiyasi: Zaif eshituvchilik - eshitishning turg'un pasayishi bo'lib, unda ushbu eshitish qoldig'i asosida nutqiy zaxirani minimal bolatda mustaqil ravishda egallash, murojaat etilgan nutqni quloq suprasiga yaqin masofada idrok etish imkoniyati bo'ladi. Audiometr tekshiruvi eshitishning 80 dB kam bo'lmagan pasayishini ko'rsatadi.⁶³

Zaif eshituvchanlik xususiyatlari:

- Nutq rivojlanishida muammolar: Eshitishdagi kamchilik nutqning sekin rivojlanishiga yoki buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Ta'limdagi qiyinchiliklar: Bolalar o'qish, yozish va savodxonlikka tayyorlanishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.
- Maxsus ta'lim zaruriyati: Bunday bolalar uchun maxsus maktablar, rejaları va dasturlari mavjud.

Zaif eshituvchi bolalarning nutqiy rivojlanishiga oid muammo turli pedagogik, psixologik hamda metodik nuqtai nazarlarda o'rganib kelinmoqda. Bu borada surdopedagogika, maxsus pedagogika va logopediya fanlarida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Pedagogik adabiyotlarda zaif eshituvchi bolalarning nutqiy faoliyati eshitish imkoniyatlarining chegaralanganligi sharoitida shakllanishi sababli, maxsus o'qitish va logopedik yondashuvlar zarurligi ta'kidlanadi. Masalan, A.A. Valiyev o'zining "Zaif eshituvchi bolalarda nutqni rivojlantirish metodikasi" nomli asarida bolalarning nutqiy ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilgan pedagogik metodlar va logopedik ish shakllarini taklif etadi. L.S. Vigotskiy va S.L. Rubinshteynning ishlari asosida bu bolalardagi nutqiy rivojlanishning ichki psixik asoslari chuqur o'rganilgan. Ularning

⁶³ U.Qodirova, U.Y.Fayziyeva, Sh.X.Kobilova, O.S.Ishmatova, M.A.Umaraliyeva SURDOPEDAGOGIKA(darslik). Chirchiq-2024

fikricha, eshitishdagi nosozlik bolaning tafakkuri, ifoda qilish qobiliyati va til o'zlashtirish tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. R. SHomahmudova, L. Mo'minova "Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish" kitobida nutqning tog'ri rivojlanishi uchun bola me'yorida eshitadigan bo'lishi muhimligi takidlab o'tilgan. . Eshitish organi bola tug'ilgan kundan boshlaboq ishga tushadi. Hayotining ikkinchi haftasiga kelib, bolaning ovozga quloq solayotganini kuzatish mumkin. Bu eshituv analizatorining funksional jihatdan yetarlicha yetukligi hamda markaziy nerv tizimida eshituv dominantasi paydo bo'la olishini ko'rsatadi. Hayotining 2-oyiga kelib bola sifat jihatdan har xil tovushlarni ajrata boshlaydi. 3-oydan boshlab ovoz kelgan tomonga qaray boshlaydi. Bola 3-4 oylik bo'lib qolganda tovushlarning tonini ajrata oladigan bo'ladi va ularda nutqning eshitish qobiliyati yoshi ulg'aygan sari rivojlanib boradi.⁶⁴

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda 3 ta asosiy metodlar guruhi qo'llaniladi: og'zaki metodlar (oral), imo-ishora metodlari (manual — ishoraviy til), eshitish metodlari (aural).

Og'zaki va imo-ishora metodlari an'anaviy metodlarga kiradi. Ular XVII asrdan boshlab qo'llaniladi, garchi hozirda ular mukammalroq shaklga ega bo'lgan bo'lsa ham. Eshitish metodlarini esa zamonaviy metodlarga kiritish mumkin, chunki ularning paydo bo'lishi KI (kohlear implant) va eshitish apparatlari tarqalishi bilan bog'liq.

X.J.Kalbayeva o'zining "Maktabgacha surdopedagogika" kitobida zaif eshituvchi bolalar talaffuz malakalarini tekshirishning quyidagi 3 ta metodlarni keltirib o'tgan:

✓ kuzatish metodi- eshitish qobiliyati buzilgan bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida tashkil etilayotgan korreksion-tarbiyaviy ishlarni kuzatish maqsadida qo'llaniladi.

✓ So'rab bilish metodi. U anketa (ezma so'rab bilish shakli) va intervyu (og'zaki so'rab bilish shakli)dan foydalanib o'tkaziladi. Ommaviy mulohazalar olish uchun anketa yordamida so'rab bilish metodidan foydalaniladi. Uncha katta bo'lmagan guruhdan axborot to'plash zarur bo'lgan hollarda odatda intervyu olish metodidan foydalaniladi.

✓ Suhbat metodi bolalarning qiziqishlarini, ularning tasavvurlarini, munosabatlarini, muloqazalarini va turmushning u yoki bu xodisalarini baholashlarini aniqlashga yordam beradi. Suhbat o'tkazish uchun maqsadni belgilash, dasturni ishlab chiqish, savollarni, ularning ketma-ketligini puxta o'ylash zarur. Suhbat aksariyat hollarda pedagoglar va ota-

⁶⁴ R. SHomahmudova, L. Mo'minova. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. Toshkent "Turon-iqbol" 2007. 8-b.

onalar bilan o'tkazilib, bolalarning rivojlanishi, o'ziga hos xususiyatlari haqida ma'lumot to'plashga xizmat qiladi.⁶⁵

Muhokama va natija: Zaif eshituvchi bolalarda nutq rivoji notekis kechadi: eshitish analizatori yetarli ishlamaganligi tufayli tovushlarni to'g'ri idrok eta olmaslik, nutqning fonetik-fonematik qismi buzilishiga olib keladi. Eshitishning darajasi, bu buzilishning sodir bo'lish vaqti, bolaning individual xususiyatlari va pedagogik sharoitlar nutq rivojida muhim omillardir. Hatto 2-darajali zaif eshitishdagi bola ham, to'g'ri yordam bilan, grammatik va leksik jihatdan to'g'ri nutqqa ega bo'lishi mumkin. Zaif eshituvchi bolalarda nutq rivojlanishining eng muhim va murakkab yo'nalishlaridan biri - bu fonematik eshitishning shakllanishidir. Fonematik eshitish - bu tovushlarni farqlash, ularni tanib olish va bir-biridan ajrata olish qobiliyati bo'lib, bu qobiliyat bolada tabiiy eshitish orqali shakllanadi. Ammo eshitishida nuqson mavjud bo'lgan bolalarda bu jarayon sezilarli darajada sust kechadi yoki umuman shakllanmasligi mumkin. Bu esa nafaqat tovushlarning talaffuziga, balki yozma nutqga ham bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zaif eshituvchi bolalar talaffuz malakalarini turli metodlar yordamida tekshirib, turli logopedik mashg'ulotlar yordamida shakllantirish mumkin. Ushbu jarayonning asosini logopedik o'yinlar tashkil etadi.

Logopedik o'yinlar — bu nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalar uchun maxsus tashkilotiladigan o'yin faoliyatlari bo'lib, ular orqali bola tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni, so'zboyligini kengaytirishni, gap tuzishni va muloqot qila olishni o'rganadi. Shunday ekan logopedik o'yinlarni bir nechta turlarini keltirib o'taman.

- ✓ Fonetik o'yinlar – tovushlarni farqlash va to'g'ri aytishga qaratilgan.
- ✓ Leksik o'yinlar – yangi so'zlarni o'rganish va amalda qo'llash.
- ✓ Grammatik o'yinlar – gap tuzish, so'z shakllarini to'g'ri ishlatish.
- ✓ Didaktik o'yinlar – nutq bilan birgalikda tafakkurni rivojlantirish.

Olga Suxova o'zining «Слушать интересно! Как и зачем учить ребенка слушать? Более 150 игр, направленных на развитие слуха и речи.» Kitobida eshitish idroki va nutqni rivojlantirishga qaratilgan 150 dan ortiq o'yinlarni keltirib o'tgan. Masalan:

"To'g'ri so'zlarni eslang"

O'yin nimani rivojlantiradi: Eshitish diqqati, eshitish-og'zaki xotira, passiv va faol lug'at, og'zaki-mantiqiy fikrlash, talaffuz.

⁶⁵ X.J.Kalbayeva.Maktabgacha surdopedagogika. Toshkent-2007.

Ishtirokchilar: Kattalar (1-2), bolalar (1 yoki undan ko'p).

Tayyorlanishi:

Turli mavzulardagi hikoyalar matnlarini tayyorlash kerak. Matn hajmi 5-10 jumladan iborat. Matnlar ma'lum bir tematik guruhdagi so'zlarni o'z ichiga olishi kerak. Masalan, "Kiyim" mavzusidagi so'zlar: ko'ylak, palto, ko'ylagi, paypoq. Va hokazo.

Ko'rsatmalar: "Men hikoya o'qiyman. Diqqat bilan tinglang. Kiyimni (ob-havo, transport, o'simliklar va boshqalar) bildiruvchi so'zlarni eslab qolishingiz kerak. Men hikoyani o'qib bo'lgach, shu so'zlarni takrorlang".⁶⁶

Bundan tashqari I.V. Korolyova ham o'zining "Учусь слушать и говорить играя" kitobida zaif eshituvchi bolalar tallafuz malakalarini shakllantirish uchun juda samarali o'yinlarni keltirib o'tgan. Masalan: O'yin: **"Takrorla va davom ettir"**

(ruscha: Игра «Повтори и продолжи»)

O'yin nimalarni rivojlantiradi:

- Eshituv xotirasi
- Eshituv e'tibori
- So'zlar orasidagi assotsiativ bog'lanish
- Og'zaki va mantiqiy fikrlash
- Passiv va aktiv so'z boyligi
- Tasavvur
- Talaffuz
- Bog'liq nutq

Ishtirokchilar:

Kattalar (1–2 kishi), bolalar (1 va undan ortiq)

Ko'rsatma (instruktsiya):

Men bir so'z aytaman, sen uni takrorla va o'zingdan bir so'z qo'sh. Keyingi ishtirokchi oldingi so'zlarni takrorlaydi va yana yangi so'z qo'shadi. Barcha so'zlar har xil bo'lishi kerak.

O'yin tartibi:

Yetakchi biror so'z aytadi. Birinchi ishtirokchi uni takrorlab, yangi so'z qo'shadi. Keyingi ishtirokchilar oldingi so'zlar zanjirini to'liq takrorlaydi va yangi so'z qo'shadi. Bu jarayon zanjir juda uzun va eslab qolish qiyin bo'lguncha davom etadi (odatda 7 so'zdan

⁶⁶ Олга сухова Слушать интересно! Как и зачем учить ребенка слушать? Более 150 игр, направленных на развитие слуха и речи. ООО "Феникс" оформление, 2022.

ortiq bo'lsa). Shunda o'yin boshidan boshlanadi, lekin birinchi so'zni endi boshqa ishtirokchi aytadi.

O'yinni murakkablashtirish usullari:

1. Tematik guruh bilan o'ynash:

Faqat bitta mavzuga oid so'zlar ishlatiladi, masalan: "Mevalar", "Hayvonlar", "Mebel", "Idishlar" va h.k.⁶⁷

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, eshitish imkoniyati bolaning nutqiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda bu jarayon tabiiy ravishda murakkab va sekin kechadi. Zaif eshituvchi bolalarda nutqning fonetik, leksik va grammatik jihatlarida kuzatiladigan kamchiliklar, avvalo, fonematik eshitishning yetarli darajada shakllanmasligi bilan bog'liqdir. Bu holat nafaqat og'zaki, balki yozma nutqning rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar va pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, maxsus tashkil etilgan surdopedagogik va logopedik yondashuvlar, zamonaviy eshitish texnologiyalari hamda individual imkoniyatlarni hisobga olgan holda olib borilgan ta'lim-tarbiya ishlari zaif eshituvchi bolalarda nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, logopedik o'yinlar bolaning nutqiy faolligini oshirish, talaffuzni to'g'rilash, lug'at boyligini kengaytirish va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Demak, zaif eshituvchi bolalarni jamiyatga to'laqonli integratsiya qilish, ularning nutqiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlash uchun erta tashxis, tizimli logopedik ishlar, o'yin texnologiyalariga asoslangan mashg'ulotlar hamda pedagog va ota-onalarning hamkorligi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U.Qodirova, U.Y.Fayziyeva, Sh.X.Kobilova, O.S.Ishmatova, M.A.Umaraliyeva SURDOPEDAGOGIKA(darslik). Chirchiq-2024

2. R. SHomahmudova, L. Mo'minova. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. Toshkent "Turon-iqbol" 2007. 8-b.

⁶⁷ И. В. Королева. Учусь слушать и говорить играя. Каро 2020.

- =====
3. X.J.Kalbayeva.Maktabgacha surdopedagogika. Toshkent-2007.
 4. Ольга сухова Слушать интересно! Как и зачем учить ребенка слушать? Более 150 игр, направленных на развитие слуха и речи. ООО “феникс” оформление, 2022.
 5. И. В. Королева. Учусь слушать и говорить играя. Каро 2020.
 6. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." International Journal on Orange Technologies 3.12 (2021): 211-216.
 7. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." INTERNATIONAL CONFERENCES. Vol. 1. No. 11. 2022.
 8. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO ‘RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.4 (2022): 70-81.
 9. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorivich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO ‘RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.3 (2022): 288-296.
 10. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."
 11. "UMUM TA’LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK FANINI O’QITISHNING HOZIR HOLATI." Oriental Art and Culture, Vol. 5, No. 6, 2024, pp. 65–69.